



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 490 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhmet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi.....	317
Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar	322
Fayziyeva Umida Asadovna	
Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumalarning nahviy tahlili	328
Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi	
"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili	333
To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi	
Jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va uning vatanparvarlik harakatlari...	337
Raximov Azizbek Normurodovich	
Biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi	342
Ibodova Mahfuza Namozovna	
Ta'limni tashkil etishning pedagogik omillari	346
Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, Hazratkulova Lobar To'rabek qizi	
5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish	350
Botirova Sayyora Nurullayevna	
Talabalarda grammatik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari	354
Aymanova Shyirinay Kamilovna	
Yosh ofitserlarda xizmat rezistentligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar	357
Rejаметова Irada Ikramshikovna	
Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari	363
Yusufzoda Shabnami Yunus	
Преимущества использования STEAM технологий в дошкольном образовании.....	368
Садикова Д. Х.	
Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining pedagogik-psixologik determinantlari	371
Saliyeva Muslima Maxsetbay qizi	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining etik va huquqiy jihatlari o'qitish metodikasi	377
Turanova Aynur Baxtjan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar alaliyasini korreksiya qilishda neyrostimulyatsiya hamda logopedik texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi.....	381
Axunxodjayeva Dildoraxon G'anixon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligi korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida	384
Qilichova Marxabo Xudaykulovna	
Informatika fanini innovatsion vositalar bilan o'qitish.....	392
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi	
Jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi....	397
Mamatxanov Nodirxon Sadridin o'g'li	
Sociolinguistic Variation in English: A Study of Dialects and Accents.....	402
Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi, Ramazonova Feruzaxon Akbarovna	
Ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'noning verbal-vizual vositalar orqali voqelanishi: chog'ishtirma-pragmatik tahlil.....	405
Mo'minova Maftuna Alijonovna	
Long-Term Retention and Pragmatic Use of English Idioms Following Adaptive Instruction: A Longitudinal Follow-Up Study.....	409
Alisher Sidikov Uktamjonovich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli	418
Yangiyev Shavkat Norkobulovich	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	422
Sh. Yu. Abdunabiyeva	

Dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	428
Turamuratov Ulug'bek Uraqovich	
Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli	433
Raisov Shamsiddin Rashid o'g'li	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	438
Radjapov Aybek Allaberganovich	
Miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg'ulotlarini o'tkazish uchun moslashuvchan dasturni ishlab chiqish va raqamli uslubiy yordam	442
Davranova Maftunabonu Elyorovna	
Maxsus pedagogika yo'nalishi talabarlari kasbiy mas'uliyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari...	448
Xalimova Ozoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini raqamli didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish	451
Sabohat Sharofiddinovna Siddiqova	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi	455
Baratova Yulduz	
Talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda sun'iy intellektning o'rni	461
Shamsudinova Malika Ulug'bek qizi	
Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik muammolari va ularning yechimlari.....	464
Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich	
Muloqot va uni o'smirlik yoshida rivojlantirish masalalari	470
Orifova Sabot Yakubovna	
O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish metodlari.....	474
Safarova Dilnoza Kuchkarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining barkamol yosh avlodni shakllantirishida milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni	478
Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ahamiyatining rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlili.....	481
Oripova A'lo O'ktam qizi	
Logopediya fanida me'yor tushunchasining zamonaviy talqinlari: nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar.....	485
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	



JAMOAT TARTIBINI SAQLASH XIZMATIDA BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINATSIYASI

Mamatxanov Nodirxon Sadriddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil
izlanuvchisi

ORCID-009-0000-1334-8741

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi o'rganilgan. Boshqaruv kompetensiyalarining kognitiv, kommunikativ, emotsional-irodaviy, motivatsion, ijtimoiy-perseptiv, liderlik-tashkiliy va refleksiv-regulyativ tarkibiy qismlari yoritilgan. Empirik tadqiqotda jamoat tartibini saqlash xizmatida faoliyat olib boruvchi respondentlarning yosh va ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimoti miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilingan. Yosh omili boshqaruv kompetensiyalarining kasbiy tajriba va psixologik yetuklik bilan bog'liq rivojlanishini, ma'lumot darajasi esa ularning kognitiv, tahliliy, kommunikativ va tashkiliy asoslarini belgilovchi muhim kasbiy-demografik determinant sifatida talqin qilingan. Boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishini yosh va ta'lim omillari bilan bir qatorda, xizmat staji, lavozim, komandirlik tajribasi va tashkiliy muhit bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: boshqaruv kompetensiyasi, ijtimoiy-psixologik determinatsiya, jamoat tartibini saqlash, yosh omili, ma'lumot darajasi, kasbiy tajriba, qaror qabul qilish, liderlik, kommunikativ kompetensiya, kasbiy-demografik determinantlar.

Abstract: This article examines the socio-psychological determination of managerial competencies in public order maintenance. It elucidates the cognitive, communicative, emotional-volitional, motivational, socio-perceptual, leadership-organizational, and reflective-regulatory components of managerial competencies. The distribution of respondents engaged in public order maintenance was analyzed quantitatively and qualitatively according to age and educational level. Age is interpreted as a significant professional and demographic determinant of managerial competency development associated with the accumulation of professional experience and the attainment of psychological maturity, whereas educational level is regarded as a factor shaping its cognitive, analytical, communicative, and organizational foundations. The study substantiates the need to examine the development of managerial competencies comprehensively in relation to age, educational level, length of service, position held, command experience, and the characteristics of the organizational environment.

Key words: managerial competencies, socio-psychological determination, public order maintenance, age factor, educational level, professional experience, decision-making, leadership, communicative competence, professional and demographic determinants.

Аннотация: В статье исследуется социально-психологическая детерминация управленческих компетенций в деятельности по охране общественного порядка. Раскрываются когнитивный, коммуникативный, эмоционально-волевой, мотивационный, социально-перцептивный, лидерско-организационный и рефлексивно-регулятивный компоненты управленческих компетенций. Проведён количественный и качественный анализ распределения респондентов, осуществляющих деятельность по охране общественного порядка, по возрасту и уровню образования. Возрастной фактор интерпретируется как значимый профессионально-демографический детерминант развития управленческих компетенций, связанный с накоплением профессионального опыта и достижением психологической зрелости, тогда как уровень образования рассматривается как фактор, определяющий их когнитивные, аналитические, коммуникативные и организационные основы. Обоснована необходимость изучения процесса формирования управленческих компетенций в комплексной взаимосвязи с возрастом, уровнем образования, стажем службы, занимаемой должностью, опытом командной деятельности и особенностями организационной среды.

Ключевые слова: управленческие компетенции, социально-психологическая детерминация, охрана общественного порядка, возрастной фактор, уровень образования, профессиональный опыт, принятие решений, лидерство, коммуникативная компетентность, профессионально-демографические детерминанты.

**KIRISH**

Zamonaviy sharoitda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash samaradorligi xodimlarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, ularda shakllangan boshqaruv kompetensiyalariga ham bevosita bog'liqdir. Xizmat vaziyatlarining murakkabligi, cheklangan vaqt sharoitida tezkor va asoslangan qarorlar qabul qilish, shaxsiy tarkib faoliyatini muvofiqlashtirish, fuqarolar bilan konstruktiv muloqot o'rnatish hamda nizoli holatlarni tartibga solish xodimlardan rivojlangan ijtimoiy-psixologik va tashkiliy-boshqaruv salohiyatini talab qiladi.

Boshqaruv kompetensiyasi xodimning xizmat vaziyatini tahlil qilish, maqsadlarni belgilash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, jamoa faoliyatini tashkil etish va erishilgan natijalarni nazorat qilish imkonini beruvchi integrativ kasbiy-psixologik tuzilma hisoblanadi. Uning tarkibida kognitiv, kommunikativ, emotsional-irodaviy, motivatsion, ijtimoiy-perseptiv, liderlik va refleksiv komponentlar o'zaro uyg'unlashadi.

Boshqaruv kompetensiyalari xodimning tayyor va o'zgarmas sifati emas, balki ta'lim, ijtimoiy tajriba, xizmat faoliyati, shaxslararo munosabatlar va tashkiliy muhit ta'sirida shakllanib boradigan dinamik psixologik tuzilmadir. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-psixologik determinatsiya boshqaruv kompetensiyalarining yuzaga kelishi, rivojlanishi va xizmat jarayonida namoyon bo'lishini belgilovchi omillar tizimini anglatadi.

Boshqaruv kompetensiyalarining determinantlari individual-psixologik, kasbiy-demografik, shaxslararo va tashkiliy darajalarda namoyon bo'ladi. Xodimning yoshi, ma'lumot darajasi, xizmat staji, lavozimi, komandirlik tajribasi, kasbiy motivatsiyasi, emotsional-irodaviy barqarorligi, jamoaviy munosabatlari va xizmat muhiti ushbu kompetensiyalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot doirasida yosh va ma'lumot darajasi boshqaruv kompetensiyalarining muhim kasbiy-demografik determinantlari sifatida o'rganildi. Yosh omili xodimning kasbiy tajribasi, psixologik yetukligi, mas'uliyati va boshqaruv faoliyatiga tayyorligi bilan bog'liq bo'lsa, ma'lumot darajasi uning nazariy tayyorgarligi, tahliliy fikrlashi, kommunikativ imkoniyatlari hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish salohiyatini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R. Mahmudov boshqaruv tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Boshqaruv - bu tanlovni amalga oshirish, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir". Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv faoliyatining samaradorligi nafaqat tashkiliy mexanizmlar va qaror qabul qilish jarayoniga, balki rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, liderlik salohiyati, mas'uliyatligi, emotsional-irodaviy barqarorligi hamda boshqaruv vaziyatlarini to'g'ri baholash qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir ^[1].

Rahbar shaxsi boshqaruv faoliyatining asosiy bo'g'ini (obyekti) sifatida qator fanlar - iqtisodiyot, mehnat sotsiologiyasi, menejment, marketing va boshqalarning - predmetlaridan biri hisoblanib, uning turli qirralarini har bir fan o'ziga xos usul hamda uslublar yordamida o'rganadi. Lekin bu izlanishlarning deyarli hammasi tushuntiruvchi va modellashtiruvchi xarakter kasb etib, aslida rahbar shaxsini tanlash, saralash, uning faoliyatini o'zgartirish (korreksiyalash) va talablarga moslashtirish jarayoni ijtimoiy-psixologik tamoyillarga asoslanadi ^[2].

D. B. Umarov "Harbiy boshqaruvda faollikning ijtimoiy-psixologik jihatlari" nomli maqolasida: "Harbiy boshqaruv - harbiy kuchlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va ularni strategik maqsadlarga yo'naltiruvchi murakkab tizimdir. Bugungi global xavfsizlik sharoitida harbiy boshqaruvni raqamlashtirish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda kiberxavfsizlikni mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda", - deb ta'kidlaydi ^[2]. Muallifning mazkur yondashuvi harbiy boshqaruvni faqat buyruq berish va uning ijrosini nazorat qilish jarayoni sifatida emas, balki strategik maqsadlar, inson resurslari, axborot oqimlari va zamonaviy texnologiyalarni o'zaro muvofiqlashtiruvchi kompleks tizim sifatida talqin etishga imkon beradi. Bu esa zamonaviy rahbarning an'anaviy boshqaruv ko'nikmalari bilan bir qatorda, raqamli kompetentlik, axborotni tezkor tahlil qilish, kiberxavflarni oldindan baholash, murakkab vaziyatlarda asoslangan qaror qabul qilish hamda shaxsiy tarkib faoliyatini samarali muvofiqlashtirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

A. V. Vartayev o'z tadqiqotida: "Xizmat-jangovar vaziyatlar usulini harbiy oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, harbiy qism va bo'linmalardagi komandirlik tayyorgarligi jarayoniga kompleks joriy etish boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini oshiruvchi istiqbolli pedagogik texnologiyadir", - deb ta'kidlaydi ^[4]. Muallifning ushbu fikri boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy bilimlarni amaliy xizmat sharoitlariga yaqinlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xizmat-jangovar vaziyatlarni modellashtirish komandirlarda vaziyatni tezkor va kompleks baholash, muqobil harakat variantlarini ishlab chiqish, xavf va ehtimoliy oqibatlarni oldindan ko'ra bilish, cheklangan vaqt sharoitida asoslangan qaror qabul qilish hamda shaxsiy tarkib faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.



Avvalgi tadqiqotimizda boshqaruv faoliyatining samaradorligi faqat statistik natijalar bilan emas, balki xizmat muhitining psixologik barqarorligi, jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlim va aholining tizimga bo'lgan ishonchi bilan ham belgilanishi asoslangan edi ^[5]. Mazkur yondashuvga ko'ra, rahbarlik kompetensiyasi buyruq berish va faoliyatni muvofiqlashtirish bilan cheklanmay, emotsional intellekt, vaziyatni adekvat baholash, stressni boshqarish, xodimlarning psixologik farovonligini qo'llab-quvvatlash hamda jamoada psixologik xavfsizlikni ta'minlash qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Shuningdek, rahbar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jamoaning ijtimoiy-psixologik iqlimi, xodimlarning motivatsiyasi, emotsional zo'riqishi va kasbiy kuyish darajasini kompleks hisobga olishi zarur ^[5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot predmetini jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi, xususan, ularning yosh va ma'lumot darajasi bilan bog'liq kasbiy-demografik xususiyatlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Empirik tadqiqotga jami 145 nafar respondent jalb qilindi. Tanlanmani shakllantirishda respondentlarning turli yosh va ta'lim guruhlariga mansubligi hisobga olindi. Bunday tarkib boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishi va namoyon bo'lishida yosh hamda ta'lim omillarining o'rnini qiyosiy o'rganish uchun empirik asos yaratdi (1-jadval).

1-jadval: **Tadqiqot sinaluvchilarining yosh omili bo'yicha taqsimoti (n=145)**

Yosh ko'rsatkichi	Soni	%
20-25 yosh	26 nafar	17,9%
26-30 yosh	42 nafar	29,0%
31-35 yosh	47 nafar	32,4%
36 yosh va undan yuqori	30 nafar	20,7%
Jami	145 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining yosh omili bo'yicha taqsimoti tahlil qilinganda, jami 145 nafar respondent to'rtta yosh guruhiga ajratilgani ko'rinadi. Ularning 26 nafari 20-25 yosh, 42 nafari 26-30 yosh, 47 nafari 31-35 yosh, 30 nafari esa 36 yosh va undan yuqori yosh guruhiga mansubdir. Respondentlarning turli yosh bosqichlaridan jalb etilgani jamoat tartibini saqlash xizmat faoliyatida boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishi va namoyon bo'lishini xizmat tajribasi, kasbiy yetuklik hamda boshqaruv mas'uliyati bilan bog'liq holda qiyosiy o'rganish imkonini beradi.

Empirik natijalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, tanlanmada eng katta guruhni 31-35 yoshdagi respondentlar tashkil etadi. Ushbu yosh toifasiga 47 nafar xodim kiradi. Bizningcha, 31-35 yosh davri kasbiy faoliyatning nisbatan barqarorlashgan, xizmat tajribasi yetarli darajada to'plangan va boshqaruv vazifalarini mustaqil bajarish imkoniyatlari kengaygan bosqichlardan biri hisoblanadi. Ushbu yoshdagi xodimlar xizmat jarayonida turli vaziyatlarni boshdan kechirgan, tezkor qaror qabul qilish, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish, xizmat topshiriqlarini rejalashtirish va jamoa bilan ishlash tajribasiga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli ularning boshqaruv kompetensiyalarida mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, e'tiborlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi ko'rsatkichlarning faol namoyon bo'lishi kutiladi.

26-30 yosh guruhiga 42 nafar respondent mansub bo'lib, ular tanlanmada son jihatdan ikkinchi o'rinni egallaydi. Ushbu yosh bosqichi xizmat faoliyatiga faol moslashish, kasbiy tajribani mustahkamlash va boshqaruv vazifalariga bosqichma-bosqich jalb etilish davri bilan tavsiflanadi. Kuzatishlarimiz asosida bu yoshdagi xodimlarda yangi bilim va tajribani egallashga intilish, yuqori xizmat faolligi, vazifalarni tez bajarish, tashabbus ko'rsatish va kasbiy mavqeni mustahkamlash ehtiyoji kuchli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, murakkab boshqaruv vaziyatlarida yetarli tajribaning shakllanib ulgurmaganligi qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik, rahbar ko'rsatmalariga tayangan holda harakat qilish yoki xizmat vazifalarini bajarishda qo'shimcha nazoratga ehtiyoj sezilishiga olib kelishi mumkin.

20-25 yosh guruhiga 26 nafar respondent kiritilgan. Ushbu yoshdagi xodimlar ko'pincha kasbiy faoliyatning boshlang'ich bosqichida bo'lib, xizmat tartibi, jamoaviy munosabatlar va boshqaruv talablariga moslashish jarayonini boshdan kechiradilar. Bizningcha, bu guruh vakillarida energiyaga boy bo'lish, harakatchanlik, yangilikka ochiqlik, tez o'rganish va faoliyatga qiziqish kabi xususiyatlar nisbatan yuqori bo'lishi mumkin. Biroq boshqaruv kompetensiyalarining barqaror shakllanishi uchun faqat faollikning o'zi yetarli emas. Xizmat tajribasi, vaziyatni chuqur tahlil qilish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nizoli



vaziyatlarni tartibga solish ko'nikmalari vaqt davomida rivojlanadi. Shu sababli yosh xodimlarning boshqaruv kompetensiyalari tajribali rahbarlarning ko'magi, kasbiy murabbiylik va maqsadli tayyorgarlik dasturlari bilan qo'llab-quvvatlanishi muhimdir.

36 yosh va undan yuqori guruhga 30 nafar respondent mansubdir. Empirik natijalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, ushbu yosh toifasi xizmat va hayotiy tajribasi nisbatan yuqori bo'lgan xodimlarni qamrab oladi. Uzoq muddatli kasbiy faoliyat davomida xodimlarda xizmat vaziyatlarini oldindan baholash, turli xavflarni hisobga olish, murakkab sharoitlarda vazmin qaror qabul qilish, xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va jamoaning umumiy faoliyatini nazorat qilish ko'nikmalari shakllanishi mumkin. Bizningcha, ushbu guruh vakillarining boshqaruv kompetensiyalarida kasbiy mas'uliyat, chidamlilik, vaqtni rejalashtirish, strategik fikrlash va vaziyatga mos boshqaruv usulini tanlash xususiyatlari muhim o'rin egallaydi.

Yosh guruhlarining tanlanmada nisbatan muvozanatli ifodalanishi boshqaruv kompetensiyalarining yoshga bog'liq o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda yosh omili alohida biologik yoki demografik belgi sifatida emas, balki xizmat tajribasi, boshqaruv vazifalarini bajarish muddati, kasbiy mavqe, harbiy unvon va ta'lim darajasi bilan o'zaro bog'liq ko'rsatkich sifatida qaralishi lozim. Bir xil yoshdagi xodimlarning xizmat staji, lavozimi va boshqaruv tajribasi turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli yosh guruhlarini bo'yicha aniqlangan farqlarni boshqa kasbiy-demografik omillar bilan birgalikda tahlil qilish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Kuzatishlarimiz asosida, bizningcha, yosh ortishi bilan boshqaruv kompetensiyalarining ayrim tarkibiy qismlarida sifat jihatidan o'zgarishlar kuzatilishi mumkin. Yosh xodimlarda tezkorlik, harakatchanlik, energiya va yangi vazifalarni bajarishga tayyorlik ustun bo'lsa, o'rta yosh guruhlarida mustaqillik, mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'nikmalari faollashadi. Katta yosh guruhida esa tajribaga asoslangan vazminlik, xizmat vaziyatini oldindan baholash, jamoaning imkoniyatlarini hisobga olish va boshqaruv resurslarini oqilona taqsimlash xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Respondentlarning yosh bo'yicha taqsimoti boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasini aniqlash uchun zarur empirik asos yaratadi. Yosh guruhlarini qiyoslash orqali vaqt bo'yicha orientatsiya, qadriyatlar, bilimga ehtiyoj, ijodkorlik, avtonomiya, muloqotga moslashuvchanlik, yetakchilik qobiliyati, boshqaruv samaradorligi, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, tez va to'g'ri qaror qabul qilish, mustaqillik, chidamlilik, e'tiborlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi indikatorlarning qaysi yosh bosqichida yuqoriroq namoyon bo'lishini aniqlash mumkin (2-jadval).

2-jadval: Tadqiqot sinaluvchilarining ma'lumot omili bo'yicha taqsimoti (n=145)

Ma'lumot darajasi	Soni	%
O'rta maxsus	40 nafar	27,6%
Bakalavr	48 nafar	33,1%
Magistr	26 nafar	17,9%
OTMdan keyingi ta'lim / malaka oshirish	31 nafar	21,4%
Jami	145 nafar	100,0%

Tadqiqot sinaluvchilarining ma'lumot darajasi bo'yicha taqsimoti tahliliga ko'ra, jami 145 nafar respondent to'rtta ta'lim toifasiga ajratilgan. Ularning 40 nafari o'rta maxsus, 48 nafari bakalavr, 26 nafari magistr hamda 31 nafari oliy ta'limdan keyingi ta'lim yoki malaka oshirish bosqichidan o'tgan xodimlardan iborat. Bunday tarkib jamoat tartibini saqlash xizmat faoliyatida boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishida ta'lim omilining o'rnini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi.

Empirik natijalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, respondentlarning eng katta qismini bakalavr darajasiga ega xodimlar tashkil etadi. Ushbu guruhga mansub 48 nafar respondent tanlanmaning asosiy qismini egallaydi. Bizningcha, bakalavr darajasidagi xodimlarning ustunligi mamlakatimizda ichki ishlar organlari va jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan izchil siyosat bilan bog'liq. Mazkur ta'lim bosqichida kasbiy bilimlar bilan bir qatorda, boshqaruv faoliyati, huquqiy tafakkur, kommunikativ kompetensiyalar, jamoa bilan ishlash, vaziyatni tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalari ham shakllantiriladi. Shu sababli bakalavr darajasidagi respondentlarning soni jihatdan ustunligi boshqaruv kompetensiyalarini zamonaviy professional tayyorgarlik nuqtayi nazaridan baholash imkonini yaratadi.

O'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan 40 nafar respondent tanlanmaning salmoqli qismini tashkil etadi. Kuzatishlarimiz asosida ushbu guruh vakillari amaliy xizmat faoliyatida muayyan tajribaga ega bo'lishiga qaramasdan, boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari, strategik rejalashtirish, zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va tashkilotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha oliy ta'lim bosqichida beriladigan bilimlarga nisbatan cheklanganroq tayyorgarlikka ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ularning uzoq muddatli xizmat tajribasi, amaliy vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari va xizmat intizomiga sodiqligi boshqaruv faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi.



Magistr darajasiga ega bo'lgan 26 nafar respondent ilmiy-amaliy tayyorgarligi yuqoriroq bo'lgan mutaxassislar guruhini tashkil etadi. Empirik natijalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, magistratura bosqichi mutaxassisning kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, murakkab boshqaruv vaziyatlarini baholash, ilmiy yondashuv asosida qaror qabul qilish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Shu sababli magistr darajasidagi respondentlarning ishtiroki boshqaruv kompetensiyalarining intellektual va analitik komponentlarini baholash uchun muhim empirik asos yaratadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim yoki malaka oshirish bosqichidan o'tgan 31 nafar respondent alohida e'tiborga loyiq guruh hisoblanadi. Bizningcha, ushbu toifaga mansub xodimlarning xizmat faoliyatida muntazam ravishda malaka oshirib borishi, yangi normativ-huquqiy hujjatlar, boshqaruv texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari va zamonaviy xizmat usullarini o'zlashtirishi ularning boshqaruv salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Malaka oshirish jarayonida rahbarlik faoliyati, strategik rejalashtirish, xodimlarni boshqarish, nizolarni bartaraf etish, jamoani motivatsiyalash va xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan kompetensiyalar takomillashtiriladi.

Kuzatishlarimiz asosida ma'lumot darajasi boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim bosqichlari o'rtasidagi farqlar faqat nazariy bilimlar hajmi bilan emas, balki boshqaruv faoliyatini tashkil etish, murakkab vaziyatlarda muqobil yechimlarni ishlab chiqish, jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, xizmat resurslaridan oqilona foydalanish va tezkor qarorlar qabul qilish ko'nikmalarining rivojlanish darajasi bilan ham bog'liq. Shu bilan birga, boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishini faqat ta'lim darajasi bilan izohlash ilmiy jihatdan yetarli emas. Chunki respondentlarning xizmat staji, komandirlik tajribasi, egallab turgan lavozimi, harbiy unvoni, xizmat olib borayotgan hududi va yosh xususiyatlari ham boshqaruv faoliyatining mazmuniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ma'lumot darajasi boshqa kasbiy-demografik omillar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Empirik natijalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, respondentlarning turli ta'lim bosqichlarini qamrab olishi boshqaruv kompetensiyalarining alohida indikatorlarini qiyosiy o'rganish uchun zarur sharoit yaratadi. Xususan, vaqt bo'yicha orientatsiya, qadriyatlar tizimi, bilimga bo'lgan ehtiyoj, ijodkorlik, avtonomiya, muloqotga moslashuvchanlik, yetakchilik qobiliyati, boshqaruv samaradorligi, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, tez va to'g'ri qaror qabul qilish, mustaqillik, chidamlilik, harakatchanlik, e'tiborlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi ko'rsatkichlarning ta'lim darajalariga qarab qanday namoyon bo'lishini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining shakllanishi yosh, ma'lumot darajasi, kasbiy tajriba, individual-psixologik xususiyatlar va tashkiliy muhitning o'zaro ta'siri bilan belgilanadigan ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Tanlanmada 26–35 yoshdagi hamda oliy ta'lim va uzluksiz kasbiy rivojlanish toifalariga mansub xodimlar ulushining yuqoriligi ularda boshqaruv faoliyatining kognitiv, kommunikativ, tahliliy va tashkiliy komponentlarini rivojlantirish uchun zarur imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Biroq samarali boshqaruv kompetensiyasi nazariy bilimlarning amaliy tajriba, emotsional-irodaviy barqarorlik, liderlik, kommunikativ moslashuvchanlik va refleksiv o'zini boshqarish bilan uyg'unlashuvi asosida shakllanadi.

Tavsiyalar:

1. Xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini ularning yoshi, ma'lumot darajasi, xizmat staji, lavozimi va boshqaruv tajribasiga muvofiq differensiallashtirish.
2. Yosh va tajribasi yetarli bo'lmagan xodimlarga tajribali rahbarlarni murabbiy sifatida biriktirib, ularda qaror qabul qilish, xizmat vaziyatlarini tahlil etish va shaxsiy tarkib bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.
3. Boshqaruv faoliyati samaradorligini baholashda ma'lumot va xizmat staji bilan cheklanmasdan, amaliy natijalar, liderlik salohiyati, jamoa bilan ishlash qobiliyati hamda murakkab vaziyatlardagi xulq-atvorni qamrab oluvchi kompleks mezonlardan foydalanish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmudov R. Boshqaruv psixologiyasi. Darslik. - T.: O'zR JXU, 2022. - 215 bet.
2. Xayitov O. Boshqaruv psixologiyasi. Darslik. 2020. - B. 250.
3. Umarov D.B. Harbiy Boshqaruvda Faollikni Ijtimoiy-Psixologik Jihatlarini //Journal of Innovation in Volume: 3 Issue: 10 Year: 2025. Educational and Social Research ISSN: 2992-894X | <http://journals.proindex.uz>. B. 98-99
4. Вертаев А.В. Формирование компетенции принятия оптимальных управленческих решений у курсантов вузов внутренних войск МВД России с использованием метода служебно-боевых ситуаций : дис. ... канд. пед. наук. СПб., 2015. 279 с.
5. Mamatxanov N.S. The Role of Psychological Characteristics of Leadership Personnel in the Activities of Maintaining Public Order // Spanish Journal of Innovation and Integrity | ISSN 2792-8268 | Volume-54 | May -2026 Page: 228-233.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.